Masalan, AQShning Nyu-York shtati o'z byudjetining qariyb 40% ini ko'chmas mulk solig'idan oladi. O'zbekiston esa davlat byudjetining 5% ga yaqin qismini mulkiy soliqlardan oladi. Bunday tafovutlar mulkiy soliqlarning tarkibiy qismlarini shakllantirishda turlicha yondashuvlar tufayli yuzaga keladi. Bundan tashqari, mol-mulk obyektlarini baholashning qo'llaniladigan uslubiyotlari farqlanadi, ular tufayli soliq bazasi shakllanadi [8].

Kanadada mulkiy soliqqa tortish har yili yer va undagi binolarning umumiy bozor qiymati bilan aniqlanadigan obyektlar qiymati bo'yicha umumiy ko'chmas mulk solig'i hisobiga amalga oshiriladi. Individual stavkalar mulk turlariga nisbatan qo'llaniladi, rejalashtirilgan byudjet xarajatlari va mavjud soliq bazasiga qarab o'zgarishi mumkin. Hukumat har bir provinsiyada ko'chmas mulk solig'i stavkalarini mustaqil belgilaydi.

Xorijiy amaliyotda ko'chmas mulkni soliqqa tortish foyda solig'i foydasiga chegirmalarni qo'llashda hisobga olinadi. Shunga qaramay, imoratlar va binolar qurilmagan yerlarda yer

solig'i bo'yicha chegirmalarni hisoblashda chegirma summasi faqat o'sha yer uchastkalaridan foydalanishdan olingan yalpi daromadga nisbatan qo'llanilishi mumkin. Agar ko'chmas mulk obyektlarini ijaraga olish-topshirish, ko'chmas mulk obyektlarini sotish yoki qurish tadbirkorlik faoliyatining asosiy turlari bo'lsa, ushbu qoida qo'llanilmasligi mumkin bo'lgan holatlar bundan mustasno.

Buyuk Britaniya tadbirkorlik belgilari mavjud bo'lgan taqdirda ko'chmas mulkni bitta umumiy soliq orqali soliqqa tortish amaliyotini qo'llaydi. Soliq solinadigan qiymat mazkur mol-mulkni ijaraga olganlik uchun to'lanadigan taxminiy yillik to'lov summasi bilan aniqlanadi.

Fransiyada ko'chmas mulkni soliqqa tortishda soliq to'lovchining mulkida bo'lgan yoki yashash uchun foydalaniladigan imoratlar yoki binolarning mavjudligiga qarab uch xil turdagi soliqlar mavjud. Agar ko'chmas mulk bino yoki inshoot bilan ifodalangan bo'lsa, ushbu obyektlarga mahalliy davlat subyektlarining yer reyestriga muvofiq ijara summalarini hisobga olgan holda, Fransiya mintaqaviy hukumat organlari tomonidan vaqti-vaqti bilan qayta tasdiqlanadigan koeffitsiyentlar shkalasini qo'llash orqali soliq solinadi. Imtiyozlar davlat mulki, qishloq xo'jaligi faoliyati obyektlari qurilgan yer uchastkalariga, bosharti ular shaharlar chegarasidan tashqarida joylashgan bo'lsa, shuningdek, 75 yoshdan oshgan soliq to'lovchilar – jismoniy shaxslarga yoki ijtimoiy nafaqa oluvchilarga nisbatan qo'llaniladi. Agar binolar yoki inshootlar mavjud bo'lmasa, yer uchastkalari soliq solish obyekti hisoblanadi. Soliq summasi belgilangan koeffitsiyentlarga ko'paytirilgan holda ijara haqining 80 foizi miqdorida hisoblanadi. Agar uchastkaning mulkdori davlat bo'lsa, obyekt soliq solishdan ozod qilinadi. Qishloq xo'jaligi faoliyati uchun mo'ljallangan yer uchastkalari ma'lum muddatga soliq solishdan ozod qilinishi mumkin. Turar joy ko'chmas mulkiga mahalliy soliq solinadi, u har yili 1-yanvar holatiga ushbu obyektga yashovchi barcha jismoniy shaxslarga nisbatan hisoblab chiqariladi. Soliq summasi mazkur turar joy obyektining ijara summasini soliqni boshqaruvchi davlat organlari tomonidan belgilangan koeffitsiyentlarga ko'paytirish yo'li bilan hisoblab chiqiladi [5].

Shvetsiyada ko'chmas mulk turar joy, shuningdek, tijorat yoki ishlab chiqarish maqsadlarida foydalanilgan taqdirda soliqqa tortiladi. Ko'chmas mulkning soliq davridan oldingi ikki yildagi holati bo'yicha qiymati soliqni hisoblab chiqarish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bunday usulning afzalligi shundaki, mulk obyektlarini baholovchi davlat organlari ko'chmas mulk obyektini baholash jarayonida uning yakuniy qiymatiga ta'sir etuvchi barcha ma'lumotlarni to'liq hisobga olishlari mumkin. Ko'chmas mulk solig'i stavkalarining shkalasi ko'chmas mulk turiga bog'liq: turar joy 1,3%, tijorat binolari 1%, sanoat ko'chmas mulk obyektlari 0,5% stavkada soliqqa tortiladi. Besh yillik davr mobaynida yangi uy-joy ko'chmas mulk obyektlari mol-mulk solig'idan ozod etiladi, keyingi besh yillik davrda esa stavkaning yarmi qo'llaniladi.

Ko'chmas mulkka dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida soliq solinadi, ammo ko'chmas mulk obyektlarini soliqqa tortish tizimi va tuzilishi turlicha. Shuning uchun mulkiy soliqlardan olinadigan daromadlar ba'zi mamlakatlarda davlat darajasidagi jami byudjetning 3% dan oshmaydi. Amerika Qo'shma Shtatlari va Buyuk Britaniya kabi davlatlarda soliq tushumlari hajmi mos ravishda 9% va 10% ga yetadi. Kanadada mulkiy soliqlardan tushumlar mahalliy byudjetlarning 8% ini tashkil etadi. Yaponiya va Avstraliyada mulkiy soliqlarning ulushi taxminan 5% ni tashkil etadi. Mulkiy soliqlar aksariyat hududlarda mahalliy bo'lganligi sababli, u mahalliy byudjetlar soliq daromadlarining asosiy oqimini tashkil etadi. Avstraliyada

mulkiy soliqlardan tushadigan soliq tushumlari mahalliy byudjetlarning 90% dan ortig'ini to'ldiradi, Kanada va AQShda bu ulush biroz pastroq (mos ravishda 80% va 75%). O'zbekiston bu borada qator xorijiy davlatlardan ancha orqada qolmoqda va unda mulkiy soliqlardan tushadigan soliq tushumlari mahalliy byudjetlarning 25% gacha qismini tashkil etadi [8].

Shunday qilib, xorijiy mamlakatlarda ko'chmas mulkka soliq solish mahalliy va (yoki) mintaqaviy darajada amalga oshiriladi. Bunda yer uchastkalari, bino va inshootlar soliq solishning asosiy obyektlari hisoblanadi. Ba'zi mamlakatlar, masalan, Shvetsiya, Ispaniya, Germaniya va Turkiya yer uchastkalari va binolar (inshootlar) ni soliqqa tortish uchun umumiy qonundan foydalanadilar. Yangi Zelandiya, Avstraliya, Daniya kabi boshqa mamlakatlarda turli xil soliq solish obyektlarini tartibga solish uchun individual soliqlar mavjud. Eng noyob tizim Fransiyada qo'llaniladi, bu yerda mol-mulk solig'i uch xil qonun bilan tartibga solinadi: birinchisi – yer uchastkalari va ularda joylashgan ko'chmas mulk obyektlarini belgilaydi; ikkinchisi va uchinchisi – agar mulk bir nechta soliq to'lovchilar o'rtasida bo'lingan bo'lsa yoki yer uchastkalari o'z hududida inshootlar yoki binolarga ega bo'lmasa, soliq solishning individual tartibi belgilanadi.

Dunyoning aksariyat mamlakatlarida mulkiy soliqlarga nisbatan imtiyozlar tizimi qo'llaniladi. Asosan imtiyozlar davlat mulkiga, davlat kompaniyalari va munitsipal va federal darajadagi boshqaruv tuzilmalariga, konsulliklar, elchixonalar va boshqa diplomatik mulk obyektlariga nisbatan qo'llaniladi. Imtiyozlardan foyda olish maqsadini ko'zlamaydigan diniy va xayriya tashkilotlari foydalanadi. Imtiyozlar berish uchun mulk egasining turi (davlat yoki xususiy mulkdor) asos bo'lib xizmat qiladi. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalari, tibbiyot muassasalari an'anaviy ravishda imtiyozlardan foydalanadi.

Aksariyat hududlarda, shu jumladan Rossiya Federatsiyasida mulkiy soliqlar subyekti (soliq to'lovchi)ni aniqlash muammosi mulkiy soliqni to'lash majburiyati yuklatilgan shaxs – mol-mulk egasi foydasiga hal etilgan. Mulkdor, agar shunday zarurat bo'lsa, mazkur yukni mulk obyektining ijarachisi zimmasiga yuklashi mumkin. Ayrim mamlakatlarda, masalan, Fransiya va Buyuk Britaniyada soliq solish subyekti sifatida mol-mulk obyektining haqiqiy foydalanuvchisi (ijarachi) aniqlanadi va mulkiy soliqlarini to'lash uchun javobgarlik butunlay uning zimmasiga yuklanadi [2].

Mol-mulk obyektining soliq bazasi binolar, imoratlar va yer uchastkalarining qiymatini baholash yo'li bilan aniqlanadi. Baholashning obyektiv mezonlarining mavjud emasligi, soliq bazasini aniq belgilashning birinchi darajali ahamiyati va ushbu jarayonga chuqur individual yondashuv zarurati mulkiy soliqlarni boshqarish jarayonini murakkablashtiradi. Mol-mulkni baholashning kamchiligi o'tkaziladigan qayta baholashlar o'rtasidagi uzoq vaqt oralig'ida bo'ladi. Soliq solish obyektlari qiymatini yanada adolatli aniqlash uchun bir qator mamlakatlarda chegirmalar va imtiyozlar tizimidan foydalaniladi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga (IHTT) a'zo mamlakatlarda bunday tizimlar mavjud emas yoki soliq to'lovchilar bilan o'zaro hamkorlik qilish variantlarining yetarli emasligiga asoslangan.

Soliq hamjamiyatida ko'chmas mulk soliqlarining regressiv yoki progressiv soliqlar toifasiga mansubligi doimiy muhokama qilinadi. Tarixan mulkiy soliqlar regressiv deb qaralgan, ammo zamonaviy tendensiyalar ushbu soliqni ko'rib chiqishga yangicha yondashuvni ko'rsatmoqda. Agar soliqqa tortish subyekti kam daromadga ega bo'lsa va oqibatda ularni hisoblab chiqarishda chegirmalardan foydalanishi mumkin bo'lsa, mulkiy soliqlar progressiv xususiyatlarga ega bo'ladi. Mulkiy soliqlarni ma'murchiligi bilan shug'ullanuvchi ko'plab

mahalliy davlat hokimiyati organlari ham shu nuqtai nazarga tayanadi. Soliq summasini hisoblashda ular soliq solish subyektlarining to'lov qobiliyatini hisobga oladilar.

O'zbekistonda 1990-yillar boshida bozor munosabatlariga o'tilishi bilan xususiy mulk va mol-mulk tushunchasi yangi tushuncha bo'lib, tegishli ravishda ushbu obyektlarni soliqqa tortish qonun hujjatlarida birinchi marta paydo bo'lgan tushuncha edi. Tadbirkorlikni rivojlantirish mulkni soliqqa tortish mexanizmlarini faol joriy etish bilan jadallashtirildi, uni rivojlantirishga hozirgacha katta ahamiyat berilmoqda. Ko'chmas mulk solig'i ko'chmas mulkning butun majmuasini (yer uchastkasini, undagi imoratlarini yoki binolarni) qamrab olmaydi. Yer uchastkalariga yer solig'i, ushbu uchastkalarda joylashgan ko'chmas mulkka esa, mulkdor kim ekanligiga qarab, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq yoki jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i solinadi.

Xalqaro amaliyotda yana sof mol-mulk solig'i mavjud bo'lib, u muntazam (yillik) hisoblanadi va mol-mulk obyektiga nisbatan ushbu obyektga qilingan barcha xarajatlar (majburiyatlar) summasini chegirib tashlagan holda qo'llaniladi. Bunday soliq birinchi marta XIX-asr oxirida Niderlandiyada joriy etilgan, shundan so'ng XX asr boshlarida Shimoliy Yevropa va Skandinaviya mamlakatlarida, Yaponiyada esa urush tugagandan so'ng (1951-yilda) joriy etilgan va XX asr oxiriga kelib Markaziy va G'arbiy Yevropa mamlakatlarida keng tarqalgan.

Ayni paytda IHTTga a'zo bo'lgan aksariyat rivojlangan davlatlar sof mol-mulk solig'idan foydalanmoqda. Avstraliya, Kanada va Qo'shma Shtatlar bu mamlakatlar qatoriga kirmaydi, lekin ba'zi Yevropa mamlakatlari, masalan, Buyuk Britaniya kabi mamlakatlar an'anaviy mol-mulk solig'i yoki kapitalni ko'paytirish solig'i kombinatsiyasidan foydalanadilar [1].

Yillik undiriladigan sof mol-mulk solig'i yuridik shaxslardan undiriladigan (yoki jismoniy shaxslardan olinadigan) foyda solig'i bilan birgalikda ko'rib chiqiladi. Ushbu soliqni dastlab joriy etishda, maqsadlarning mavjud farqiga qaramay, davlatlarning jismoniy shaklga ega bo'lgan mol-mulkni daromadlardan ajratish istagi sabab bo'lgan. Shuningdek, boylar aholi o'rtasida taqsimlash istagi (boylar va kambag'allar o'rtasidagi tafovutni qisqartirish) yoki soliq tizimini yanada progressiv yo'nalishda qayta qurish ham sabab bo'lishi mumkin. Sof mol-mulk solig'i stavkalari o'rtasidagi farq jismoniy shaxslarni soliqqa tortishda 1% ga yetishi mumkin, lekin ko'pincha 0,5% dan 1,5% gacha oraliqda o'zgarib turadi. IHTTga a'zo ayrim mamlakatlar ushbu soliqni yuridik shaxslarga nisbatan qo'llaydi. Bir qator hollarda sof mol-mulk solig'i tashkilotlarning foyda solig'ining qisman muqobili hisoblanadi.

Mulkiy soliqqa tortish Xitoyda uzoq yillik an'anaga ega bo'lib, uzoq vaqt davomida olinadigan mol-mulk soliqlari mumkin qadar ko'proq soliq bazasiga ega bo'lgan, davlat uchun muhim va barqaror daromad manbai bo'lgan. Xitoyda mol-mulkni soliqqa tortish rivojining ayrim davrlarini tahlil qilish natijasi mazkur soliqning milliy soliq tizimidagi o'rnini uning turli rivojlanish davrlarida aniqlashga yordam beradi va Xitoy Xalq Respublikasida (XXR) soliq islohotlarining yo'nalishi to'g'risida tasavvur hosil qiladi.

Davlat daromadlari uzoq vaqt davomida yerga bog'liq bo'lgan, chunki qishloq xo'jaligi asosiy ishlab chiqarish sohasi hisoblangan. Yer uchastkalari maydoni, ularning egalik yoki ijarada bo'lishi, yer hosildorligi va yer bilan bog'liq aktivlar fuqarolardan "badal"larni undirish va yig'ish asosi sifatida foydalanilgan. Bu vaziyat Xitoy tarixida taxminan miloddan avvalgi 2100-yildan, quldorlik jamiyatidan boshlab, feodal sulolalar tugashigacha (1911-yil) davom etgan. Bu davrda qariyb 4000 yil davomida davlat daromadlari yer uchun ijara haqi yoki yer soliqlari shaklida turli formalarda va turli nomlar ostida yig'ilgan. Davlatga daromad keltiruvchi

bu tizimlar markazida hamisha “mulk” bo‘lib kelgan, uning obyektlari qadimgi Xitoyda aksariyat hollarda yer uchastkalari yoki qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bo‘lgan.

Tan imperiyasining dastlabki davrida (eramizning 618-780-yillari). Xitoy taraqqiyotda dunyoning ko‘pgina mamlakatlaridan o‘zib ketdi. Xitoy hukumati har bir uy xo‘jaligida dehqonlar tirikchilik uchun ishlatishi mumkin bo‘lgan eng kam yer uchastkasi bo‘lishini ta‘minlashga harakat qildi.

15 yosh va undan katta bo‘lgan har bir erkak dehqon qishloq xo‘jalik yerlaridan 40 mu yerni olishi mumkin edi, bu yerlar u vafot etgandan keyin hukumatga qaytarib berilardi, yoki 20 mu yerni ipak qurtlari uchun foydalanish mumkin edi, bu yer xususiy mulk qilib berilar va oila ichida meros tariqasida berilishi mumkin edi.

Yerni taqsimlash tizimi bilan soliq solish tizimi bir-biriga bog‘liq bo‘lgan, bu esa soliq yig‘imlarining nisbatan bir tekis taqsimlanishini ta‘minlagan. Tan sulolasi asosiy daromadlarini yig‘ish uchun “Szu-Yun-Dyao” (租 调) tizimidan foydalangan. Soliqlar “Szu” (租) va “Dyao” (调) deb nomlangan: har bir uy xo‘jaligi (er-xotin) davlat yeri uchun renta (租) sifatida 2 dena don, shuningdek, xususiy yer uchun soliq (调) sifatida 1 li mato va 8 lyan ipak to‘lagan. Har to‘rtta katta yoshdagi (15 yosh va undan katta) uylanmagan erkakdan, sakkizta xizmatkor/xonadon xodimidan yoki 20 ta sigirdan oilaviy juftlikka teng miqdorda ijara to‘lovi va soliq undirilgan.

Agar dehqon o‘ziga tayinlangan “Szu”ni to‘lashni istamasa yoki to‘lay olmasa, uning o‘rniga “Yun” (庸) deb ataluvchi mato yoki ipak to‘lashi mumkin edi. Bu mexanizm soliq tizimining moslashuvchanligini oshirdi. Qolgan daromadlar daromad va yer soliqlaridan tushgan. Tan sulolasi davrida uy xo‘jaliklari o‘zlaridagi aktivlarga qarab sinflarga bo‘lingan. Uy xo‘jaligi solig‘i (daromad solig‘i) progressiv shkalaga muvofiq to‘langan: sinf qanchalik yuqori bo‘lsa, soliq shunchalik yuqori bo‘lgan. Yer solig‘i qishloq xo‘jalik yerlarining birligiga proporsional ravishda (1 m yer uchun 2 shenga) to‘langan.

Sun sulolasi ilk davrida (960-1279) yer uchastkasi maydonining bir birligidan qat’iy belgilangan miqdorda yer solig‘i undirilgan. So‘nggi Tan sulolasi davrida bo‘lgani kabi bu yer solig‘i yiliga ikki marta (yozda va kuzda) to‘langan. Sun hukmronligining o‘rtalariga kelib, qishloq xo‘jaligi ekinlari yirik yer egalari qo‘lida to‘plana boshladi. Bu yer egalari ko‘pchiligi yer solig‘ini to‘lashdan bo‘yin tovlash maqsadida mahalliy hokimiyat bilan til birlashtirib, yer egaligidagi haqiqiy maydonlarni yashirishgan. Shuning uchun 1068-yilda yer resurslarini boshqarish tizimi va soliq tizimi isloh qilindi. Mahalliy hokimiyatlarga har bir mulkdorning qishloq xo‘jalik yerlari maydonini aniq o‘lchash va qishloq xo‘jalik yerlarini besh sinfga ajratish vazifasi yuklatildi. Mulkdorlar yoki yer egalari qishloq xo‘jaligi yerlarining hajmi va sifatiga qarab yer solig‘ini to‘lay boshladilar (均 税). Sun sulolasi davrida tovar-pul iqtisodi mustahkamlandi, masalan, 997 yilda yer solig‘i tushumlari davlat umumiy daromadining 65% ini, 1078-yilda esa davlat soliq daromadlarining 30% ini tashkil etdi, qolgan 70% i tijorat solig‘i (sotuvdan olinadigan soliq) yig‘ish natijasida tushdi.

Tan, Sun, Yuan, Min, Sin (961-1911 yillar) imperiyalari davrida soliq tizimi yer solig‘iga ko‘proq qaram bo‘lib qoldi. Sulolalarning har birining dastlabki davri, jumladan, soliq tizimi, yer solig‘i solishning ancha adolatli bo‘lganligi bilan xarakterlanar edi. Davrning o‘rtalariga kelib, deyarli har bir sulolaning imtiyozli sinflari katta-katta qishloq xo‘jalik yerlarini o‘z nazoratiga oldilar, so‘ngra yer solig‘ini to‘lashdan bosh tortishga harakat qildilar va shu bilan davlat daromadlarini kamaytirdilar. Bu hol, shuningdek, yer egalari bilan dehqonlarning jon

boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha daromadi o'rtasidagi tafovutning ancha ko'payib ketishi sulolalarning barham topishiga muhim sabab bo'ldi. Har bir imperiya davrida soliq ma'muriyatining tanazzulga uchrashi va yomonlashuvi uning halokatga yuz tutishiga asosiy sabab bo'lgan, desak mubolag'a bo'lmaydi har safar yangi sulola ishni yangi, adolatliroq soliq tizimini qurishdan boshlar edi [8].

Mulkiy soliqlarni takomillashtirish doirasida RF tajribasini ilg'or tajriba sifatida ajratib ko'rsatish mumkin.

Rossiyada soliq solish obyekti bo'lgan mol-mulk ham mintaqaviy, ham mahalliy soliq'larga kiritilgan bo'lib, ular bo'yicha tegishli ravishda mintaqaviy va mahalliy hokimiyat federal darajada belgilangan cheklovlar doirasida soliq vakolatlariga ega. Hududiy mol-mulk soliqlari bo'yicha tushumlar qisman mahalliy byudjetlarga o'tkaziladi. Rossiya soliq tizimining hozirgi zamon tarixida mahalliy soliqlar bo'yicha tushumlarni yuqori darajadagi byudjetlar foydasiga taqsimlash tajribasi bo'lgan. Xususan, 1993-1995-yillardagi federal byudjet to'g'risidagi qonunlar mahalliy yer solig'i bo'yicha tushumlarning faqat 60 foizini munitsipalitetlar byudjetiga o'tkazishni nazarda tutgan bo'lsa, 1996-yildan boshlab bu ulush 50 foizgacha kamaytirildi. 2000-yillar boshidan beri mahalliy soliqlar faqat mahalliy byudjetlarning daromad manbai bo'lib xizmat qilmoqda. Moliyaviy jihatdan eng istiqbolli mol-mulk soliqlari Rossiya Federal G'aznachiligining 2020-yildagi byudjetlar ijrosi to'g'risidagi hisobotiga muvofiq hududiy byudjetlarga o'tkazildi. Byudjet tizimining ushbu darajasi foydasiga mulkiy soliqlar bo'yicha tushumlarning 80% dan ortig'i o'tkazildi, ular orasida asosiysi yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisoblanadi [11; 9].

Mintaqaviy va mahalliy byudjetlarning daromad manbalari mulkiy soliqlardan ularning to'lovchilariga qarab farq qiladi: munitsipalitetlar byudjetiga korxonalardan olinadigan mulkiy soliqlarning 15 foizi (yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq, yuridik shaxslar to'laydigan transport va yer soliqlari) va jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqlarning 85 foizi (jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq, fuqarolar va yakka tartibdagi tadbirkorlar to'laydigan transport va yer soliqlari) o'tkaziladi. Natijada mulkiy soliqlar mintaqaviy byudjetlar soliq daromadlarining 13 foizini va Rossiya mahalliy byudjetlari soliq daromadlarining 17 foizini tashkil etdi [11].

Quyidagi jadvalda ko'rsatilgan ma'lumotlar xorijiy davlatlardagi mulkiy soliqqa tortish tizimining asosiy jihatlarini, metodlarini va iqtisodiy ta'sirlarini aks ettiradi (1-jadval).

1-jadval.

Mulkiy soliqqa tortish bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasi

Davlat	Asosiy xususiyatlar	Soliqqa tortish metodlari	Iqtisodiy ta'sirlar
AQSh	Ko'chmas mulkka soliq stavkalari shtatlar bo'yicha farq qiladi.	Kadastr baholash, bozor qiymati asosida.	Byudjet daromadlarining asosiy manbai.
Kanada	Ko'chmas mulk soliqlari mintaqalarda adolatli taqsimlanadi.	Investitsiyalar orqali hududiy rivojlanishni rag'batlantiruvchi yondashuvlar.	Hududiy tenglik va infratuzilma rivoji.

Davlat	Asosiy xususiyatlar	Soliqqa tortish metodlari	Iqtisodiy ta'sirlar
Buyuk Britaniya	Kadastr baholash tizimi samarali tarzda avtomatlashtirilgan.	Kadastr qiymati asosida soliq stavkasi belgilanadi.	Hududiy byudjetlarning barqarorligi.
Rossiya	Ko'chmas mulkning kadastr qiymatiga asoslangan soliqqa tortish tizimi joriy qilingan.	Kadastr baholash, regression tahlil orqali soliq bazasi aniqlanadi.	Hududiy moliyaviy salohiyat oshishi.
Germaniya	Soliqqa tortishda qiymatning hisoblash standartlari va unifikatsiyasi mavjud.	Kadastr qiymati va zamonaviy avtomatlashgan baholash.	Soliq yukining shaffofligi ta'minlanadi.
Xitoy	Soliqqa tortish bozor qiymatining hududiy farqlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.	Kadastr va bozor qiymatiga moslashuvchan yondashuvlar.	Iqtisodiy o'sish va infratuzilma rivoji.

Xulosa va takliflar. Mulkiy soliqqa tortish bo'yicha O'zbekiston tajribasini chet el tajribasi bilan taqqoslab, shuni ta'kidlash mumkinki, ko'chmas mulk solig'i ko'pgina mamlakatlarda mavjud, ammo ularning mohiyati farq qiladi. Ko'pchilik mamlakatlar mol-mulk solig'i solinadigan obyektlar sifatida yerni (Rossiya Federatsiyasidan farqli o'laroq), sanoat va uy-joy binolarini va boshqa ko'chmas mulkni belgilaydilar. Ko'pincha mol-mulkning baholangan qiymati soliq bazasi bo'lib xizmat qiladi, bunda soliq stavkalari mol-mulk qiymatining advalor yoki qat'iy summasi tarzida belgilanishi mumkin. Fransiya va Buyuk Britaniyada ko'chmas mulk qiymatini baholash uchun yillik ijara haqi miqdoriga asoslangan baho qo'llaniladi. AQSh, Lotin Amerikasi, shuningdek Shimoliy Yevropaning bir qancha mamlakatlarida taxmin qilingan sotish bahosi asosida. Bunda bank omonatlari, qimmatbaho metallar va toshlar, tangalar va medallar, zeb-ziynat buyumlari va boshqalar hisobga olinishi mumkin.

Ushbu soliqlar elementlarini tahlil qilish quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon beradi:

1. Yuridik shaxslar va jismoniy shaxslar mol-mulk solig'ini to'lovchilar hisoblanadi. Qozog'istonda soliq to'lovchi sifatida, konsessiya shartnomasiga muvofiq konsessiya obyekti bo'lgan va undan foydalanish huquqiga ega konsessioner ham tan olinadi. Qirg'izistonda, mol-mulkdan foydalanuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs mol-mulk solig'i to'lovchisi deb e'tirof etiladi. Belorussiyada Respublika hududida joylashgan va korxonalar tomonidan ijaraga (moliyaviy ijara (lizing) ga), jismoniy shaxslardan haq evaziga yoki haq olmasdan boshqacha tarzda foydalanishga olingan kapital imoratlar (binolar, inshootlar), ularning qismlari bo'yicha ijarachi tashkilot (lizing oluvchi, ssuda oluvchi) to'lovchi deb e'tirof etiladi.

2. YeOII mamlakatlarida mulkiy soliqqa tortiladigan mol-mulk to'g'risida umumiy tushuncha yo'q. Masalan, Rossiya, Belorussiya, Qozog'istonda bu ko'chmas mulk, Qirg'izistonda

ko'chmas mulkdan tashqari, soliq solish obyektiga transport vositalari kiradi. Armanistonda ko'chmas mulkka yer uchastkalari va (yoki) ularni yaxshilangan shakllari (yer uchastkalarida qurilgan yer osti va yer usti imoratlari yoki inshootlari) kiradi. Shuni ta'kidlash kerakki, Armanistonda ikki xil mol-mulk solig'i mavjud: ko'chmas mulk solig'i va transport vositalaridan olinadigan mol-mulk solig'i (transport solig'ining ruscha analogi).

3. YeOIga kiruvchi har bir mamlakat mol-mulk toifasiga qarab soliq bazasini belgilaydi. Masalan, Belarus Respublikasida soliq bazasi mol-mulkning turiga qarab uning qoldiq qiymati, buxgalteriya hisobida aks ettirilgan qiymat, baholash qiymati hisoblanadi. Armanistonda qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar uchun hisob-kitob qilingan sof daromad, qolgan mol-mulk uchun kadastr qiymati soliq bazasi hisoblanadi. Rossiya Federatsiyasida ko'chmas mulk ushbu belgilar asosida ikkiga bo'linadi: soliq bazasi sifatida uning o'rtacha yillik qiymati hisoblanadigan mulk va soliq bazasi sifatida kadastr qiymati olinadigan mulk.

4. Soliq bo'yicha imtiyozlar xilma-xil taqdim etiladi. Qonun hujjatlariga muvofiq yer solig'i nazarda tutilgan mamlakatlarda yer uchastkalari va tabiatdan foydalanishning boshqa obyektlari (suv obyektlari va boshqa tabiiy resurslar) soliq solishdan ozod qilinadi. Barcha mamlakatlarda nogironlar jamiyatlari uchun imtiyozlar ko'zda tutilgan.

5. Soliqni hisoblash tartibi ham turlicha. Qozog'istonda mol-mulk solig'ining hisob-kitobi soliq solish obyektlari to'g'risidagi hisobot davri boshidagi ma'lumotlar bo'yicha amalga oshiriladi, to'lov hisobot yili mobaynida 4 marta teng ulushlarda amalga oshiriladi. Qirg'izistonda 2- va 3-guruhlariga (ishlab chiqarish, ma'muriy, sanoat, shuningdek boshqa kapital imoratlar, metall va boshqa konstruksiyalardan yasalgan, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun mo'ljallangan yoki foydalaniladigan vaqtinchalik binolar) taalluqli mol-mulk uchun soliq solinadigan bazani hisoblash mol-mulk obyektining bir kvadrat metrining soliq solinadigan qiymatidan (devorlarning materialiga va foydalanishga topshirilgan yiliga qarab) hamda faoliyatning joylashgan joyi va tarmog'ini hisobga oluvchi tuzatish koeffitsiyentlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

6. YeOIning barcha mamlakatlari uchun soliq davri hisobot (kalendar) yili hisoblanadi. Rossiyada soliq deklaratsiyalari taqdim etiladigan hisobot davri chorak, yarim yil, 9 oy hisoblanadi. RF subyektining qonun chiqaruvchi (vakillik) organi hisobot davrlarini belgilamaslik huquqiga ega. Qirg'iziston Respublikasining Soliq kodeksida soliq bo'yicha alohida soliq deklaratsiyalari nazarda tutilmagan. Kodeksning 92-moddasiga muvofiq Qirg'izistondagi barcha soliq to'lovchilar Yagona soliq deklaratsiyasini tuzishlari va taqdim etishlari shart. Yagona soliq deklaratsiyasi kalendar yil uchun tuziladi va tashkilot tomonidan hisobot yilidan keyingi yilning 1 martiga qadar taqdim etiladi. Ittifoqning qolgan mamlakatlari mol-mulk solig'i bo'yicha soliq deklaratsiyalarini yiliga bir marta taqdim etadilar.

Shunday qilib, YeOI mamlakatlarida mulkiy soliqlarda umumiy jihatlar (soliq imtiyozlari, soliq solinadigan ayrim obyektlar, soliq davri) mavjud bo'lsa-da, ko'plab farqlar ham bor: mol-mulk tushunchasidan tortib, soliq bazasini aniqlash tartibi va soliq hisoblash hamda to'lash tartibigacha.

Ko'chmas mulkni soliqqa tortishning xorijiy tajribasi tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston amaliyoti bilan ba'zi umumiy jihatlar mavjud. Shu bilan birga, alohida soliq imtiyozlari va boshqa preferensiyalarni qo'llashda, mulkiy soliqlar ma'muriyatchiligining turli darajalariga tegishliligida, shuningdek sof mulk solig'ini qo'llashda farqlar ham kuzatiladi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. DeSalvo J. S. (1970). Effects of the property tax on operating and investment decisions of rental property owners. Santa Monica, CA: RAND Corporation.
2. Devereux M. B., & Love, D. R. F. (1994). The effects of factor taxation in a two-sector model of endogenous growth. *The Canadian Journal of Economics / Revue canadienne d'économie*, 27(3), 509–536.
3. Henderson J. V. (1985). Property tax incidence with a public sector. *Journal of Political Economy* 93(4), 648–665.
4. Mieszkowski, P. (1972). The property tax: An excise tax or a profits tax? *Journal of Public Economics*, 1(1), 73–96.
5. Netzer, D. (1966). *Economics of the property tax*. Washington, D.C.: Brookings Institution.
6. Schoettle, F. P. (1985). A three-sector model for real property tax incidence. *Journal of Public Economics*, 27(3), 355–370.
7. Tiebout, C. M. (1956). A pure theory of local expenditures. *Journal of Political Economy*, 64(5), 416–424.
8. Zodrow, G. R. (2001). The property tax as a capital tax: A room with three views. *National Tax Journal*, 54(1), 139–156.
9. Волков А. А. (2012). Выработка методического подхода к оценке налогового потенциала отдельно взятого субъекта Российской Федерации на основе использования регрессионного анализа. *Российское предпринимательство*, 13(5), 184–188.
10. Дадашева, Ю. А. (2009). Прогнозирование поступлений по имущественным налогам: метод структурного моделирования. *Налоговая политика и практика*, (11), 66–70.
11. Малкина, М. Ю., & Балакин, Р. В. (2017). Оценка риска и доходности налоговых систем на основе отраслевого, регионального и смешанного портфелей. *Финансы и кредит*, 23(47), 2832.
12. To'lov U. T. (2023). Ko'chmas mulkni soliqqa tortishda xorijiy davlatlar tajribasi. *Iqtisodiyot va ta'lim*, 24(1), 407-416.
13. To'lov, U., & Jo'raev, S. (2023). Ko'chmas mulkni soliqqa tortishda xorijiy davlatlarda amalga oshirilgan islohotlar. *Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari*, 3(8), 85-92.
14. To'lov, U.T. (2022). Ko'chmas mulk solig'ining nazariy-kontseptual asoslari. "O'zbekistonda ilmiy tadqiqotlar" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy 24-konferentsiya to'plami, 18-21.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).